KASB-HUNAR MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK YO‘LLARI

Po‘latbekova Nargiza Mirzaraximovna
Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani
2-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini tarbiyalashda milliy urf-odatlar, qadriyatlar va milliy mentalitetni pedagogikaga transformatsiya qilishning innovatsion yo‘llari va usullari tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, milliylik, tasavvur, tafakkur, ruhiyat, ma’naviyat, milliy urf-odat, udum, an’ana, qadriyat.

Аннотация:В статье анализируются инновационные пути и методы трансформации национальных традиций, ценностей и национального менталитета в педагогику в обучении учащихся профтехучилищ.

Ключевые слова: образование, национальность, воображение, мышление, психика, духовность, национальная традиция, обычай, традиция, ценность.

Annatation: The article analyzes innovative ways and methods of transforming national traditions, values and national mentality into pedagogy in the education of vocational school students.

Key words: Education, nationality, imagination, thinking, psyche, spirituality, national tradition, custom, tradition, value.

Ma’lumki, tarbiya – inson shaxsi, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Kasb-hunar ta’limi esa axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: “Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi – tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir”

Yosh avlodni milliy tarbiyaa sosida tarbiyalash, o‘zligini anglash, vatanga muhabbat, o‘tmishni qadrlash, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash mazkur ta’limiy bosqichlarning har biri oldiga bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘lik ravishda o‘ziga xos talablar qo‘yishi tabiiy.

Milliylik - bu millatning o‘ziga xosligi (tili, turmush tarzi - urf-odatlari, an’ana va qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, hayotiy yondashuvlari, dunyoqarashi)ni anglatuvchi milliy xususiyat bo‘lib, ular millatning mavjudligi va yashovchanligini ta’minlashda muhim axamiyatga ega. Milliy o‘zlik millatning mavjudligini ifodalovchi qiyofadir. Milliy o‘zlikni anglash - bu millat tomonidan faqat o‘zigagina xos bo‘lgan milliy xususiyatlar mohiyatini tushunish, ularni ongli talqin eta olish, saqlab qolish va yanada rivojlantirish yo‘lida amaliy harakatni tashkil etish hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash mohiyatiga ko‘ra shaxs va millatga xos fazilat hisoblanadi.

Kasb-hunar maktab yoshidagi bolalarda milliy tarbiyani tarbiyalash muhim pedagogik muammo bo‘lib, bu borada professor O.Musurmonova muammoni yechimiga quyidagicha izoh beradi:

- “Ma’naviy kadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istagi, e’tiqodi, axloq qoidalarini o‘zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma’naviy boylik bo‘lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi; ma’naviy qadriyatlar taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan avlodga o‘tuvchi ijtimoiy hodisadir;

- Ma’naviy qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarni ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir” Kasb-hunar maktab yoshidagi bolalarda milliy tarbiyani tarbiyalash axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lgani bois bu vazifani uzluksiz ta’limning ilk bosqichlari xususan maktabgacha ta’limdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy tarbiyani berish bolalarimizda mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, rostgo‘ylik, kamtarlik, o‘z tug‘ishganlariga, qarindosh-urug‘lariga, yaqin do‘stlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo‘lishga, sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashga qaratilgan. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy tarbiyani tarbiyalash zaminida uyda o‘zini tutish, ota-onasini aytganiga quloq solish, aka-ukalariga g‘amho‘rlik ko‘rsatish, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, mehnat qilish, ilm olishga qiziqish, bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazmaslik, tozalikka rioya qilish, kattalar oldida odob saqlash kabi qator axloq-odob qoidalari, yo‘l-yo‘riqlari yotadi.

Jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi yoshlarimiz tarbiyasiga bog‘liq. Shuni nazarda tutgan holda mamlakatimizning Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Biz uchun birinchi o‘rinda bolalarimizning ma’naviyati, bilimi, sog‘ligi. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta’limga katta e’tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko‘zidagi nurni ilg‘ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish” deb ta’kidlaganlari bejiz emas.

Bugungi kunda ma’naviyatga va ta’lim-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat bermagan jamiyat, uni hayotiy ehtiyojga aylantirmagan davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf eta olmaydi, ko‘zlangan buyuk maqsadlariga yetolmaydi, turli xil xavf-xatarlardan o‘zini xoli sezolmaydi. Xalqi ma’rifiy-mafkuraviy jihatdan yetuk bo‘lmagan mamlakat, tabiiy-iqtisodiy boyliklari behisob, harbiy jihatdan qudratli bo‘lgan taqdirda ham buyuk davlat bo‘la olmaydi. Ha, ilm va ma’rifat mamlakatimiz xalqini ana shunday buyuklikka safarbar etuvchi kuchdir.

Inson zoti borki, u hamisha ezgulikka intilib yashaydi. Darhaqiqat, ezgu niyatni qalbiga jo etgan har bir inson hamma davrlarda ham o‘z maqsadi yo‘lida hayot kechirmoqqa harakat qiladi. Uning uchun hayotning eng muhim hikmatlaridan biri umrning har bir lahzasidan aql-idrokka suyanib to‘g‘ri, oqilona foydalana bilishdir. Hayotda kishilar faqatgina o‘zlarining zukko aqli, mehnatsevarligi, insoniy fazilatlari bilan xalq orasida obro‘-e’tibor topib, qadr qozonadilar. Ha "inson" degan buyuk nomga munosib bo‘lish, bu bizdan juda katta mas’uliyatni talab qiladi. Jamiyat a’zolari, ota-onalar, ziyolilarning xalq oldidagi muhim burchlaridan biri – yoshlarimizni ilm-ma’rifat sari ruhlantirish, ular ongiga milliy urf-odat va an’analar, axloq-odob qoidalarini singdirib borishdan iboratdir.

Yuksak tafakkurga ega bo‘lish bilan birga milliy-ma’naviy merosimizga tayanish, hurmat bilan qarash, asrab-avaylash, boyitib borish ruhiyatini, ma’naviyatini o‘z ongiga singdira olgan, ularga o‘z ishonch va e’tiqodini mustahkamlay oladigan yoshlar har qanday vaziyatda ham o‘zligini yo‘qotmaydi.

Kattalarga hurmat, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillik, millatidan qat’iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdardlik va o‘zaro yordam tuyg‘usi millatimizga xosdir. Ma’naviyatimizni shakllantirishda, bu fazilatlarni yosh avlod ongiga, ularning tarbiyasiga tobora singdirib borish bugungi kunning zaruratidir. Shuningdek, tarixiy qadriyatlarni ulug‘lash, ona-Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatish ham o‘zbek aholisiga xos fazilatlar bo‘lib, chuqur insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgandir. Zero jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib turgan hozirgi kunda bu masalalarning samarali hal qilinishi mustaqilligimizning asosiy shartlaridan biridir. Biz tanlagan yo‘l yurtimizga nisbatan bo‘layotgan g‘oyaviy xurujlar mohiyatini anglash va ularga qarshi kurashning samarali vositalarini izlab topish, bu borada hushyor va ogoh bo‘lish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Shunday ekan, oila oldidagi burchimizni unutmay, aziz farzandlarimizning jamiki insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam qilgan, har tomonlama barkamol insonlar bo‘lib yetishishlarini ta’minlashdek ezgu maksad yo‘lida hech qachon, har qanday noqulay vaziyatda ham ruhiy birdamlikni qo‘ldan boy bermasdan, qiyinchiliklarga qarshi g‘ayrat va shijoat ko‘rsatib mehnat qilishimiz darkordir.

"Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko‘ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxpshlikka o‘rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta bu savobga uningota-onasi, muallimi, unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e’tiborsiztashlabqo‘yilsa, yomonlik ichida o‘ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo‘ladi.

Shunday ekan, ota-onalar, tarbiyachi ustoz va murabbiylar bolaning ma’naviy axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutgan ajdodlarimiz merosidan keng xabardor bo‘lish, ulardan ta’lim-tarbiya vositasi sifatida unumli foydalanishlari zarur. Yuksak bilim va tafakkurga ega bo‘lish bilan birga milliy-ma’naviy merosimizga tayanish, hurmat bilan qarash, asrab-avaylash, boyitib borish ruhiyatini, ma’naviyatini o‘z ongiga singdira olgan, ularga o‘z ishonch va e’tiqodini mustahkamlay oladigan yoshlar har qanday vaziyatda ham o‘zligini yo‘qotmaydi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lish yoshlarimizni:

- turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolishdan saqlaydi;
- ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyatini oshiradi;
- xudbinlik, loqaydlik kabi ijtimoiy illatlardan himoya qiladi;
-mamlakatda tinch va farovon hayotni barpo etishning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Sharq mutafakkirlarining bebaho merosi, dono o‘git va hikmatlari tahlili bolaning:

- tafakkurini charxlaydi;
- fikrlash qobiliyatini hamda ijodiy faolligini oshiradi;
- etik va estetik didini shakllantiradi;
- mustaqil fikrlashga o‘rgatadi;
- ziyraklik bilan mantiqli fikrlashga o‘rgatadi, hamda ularda Vatanga muhabbat hislarini uyg‘otib, milliy an’analarga hurmat, bobolar merosiga hurmat-e’tiborini yanada oshiradi.

Oradan necha yuz yillar o‘tib ham millatimiz uchun shunchalik dolzarb bo‘lgan ta’lim-tarbiya, ma’naviyatni yuksaltirish, oila masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelmokda. Davlatimiz rahnamoligida mamlakatimiz tarixi, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va yosh avlod ta’lim-tarbiyasida bugungi kun talablariga uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash maqsadida amalga oshirgan sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq ushbu masalaga atroflicha yondoshar ekanmiz, yosh avlod tarbiyasida mas’ul bo‘lgan ota-onalar, tarbiyachi-murabbiy va ustozlarga xulosa sifatida quyidagilarni tavsiya qilmoqchiman:

- milliy urf-odat, udumlar, an’analar va qadriyatlarning rivojlanish tarixi, taraqqiyot bosqichlaridan xabardor bo‘lish;
- Sharq mutafakkirlarimizning o‘lmas merosi, xalq maqollari, hikmatlar, hadislarni chuqur o‘rganish va bu boradagi bilimlarni oshirib borish;
- ulardan ta’lim-tarbiya vositasi sifatida unumli foydalanish;
- yoshavlodga ajdodlarimizning boy merosi va qadriyatlarini eng avvalo ularning nozik qalbiga yo‘l topish, shuningdek, uzluksiz ta’lim va maqsadli tarbiya berish orqali singdirish;

-ana shu tariqa, avlodlar uzviyligi ta’minlash hamda yoshlarda insoniy fazilatlarning shakllanishiga erishish.

Biz Sharq mutafakkirlarimizning asrlar osha bizgacha yetib kelgan o‘lmas durdonalarda eng ezgu tuyg‘ularni jo etgan fazilatlarni qalbimizga muhrlar ekanmiz, bu bilan bevosita kelajak avlod tarbiyasi mukammalligini ham ta’minlagan bo‘lamiz. Mamlakatimizda buyuk ezgu maqsadlar sari tub burilish jarayoni kechayotgan davrda islohotlar qamrovining kengayib borishi

zimmamizga yuklangan mas'uliyatlar ko'lamining ham o'z-o'zidan kengayib borishiga olib kelmoqda. Bu esa har birimizdan chuqur bilim va tafakkurga ega bo'lishni talab qiladi. Har birimiz jamiyat hayotida kechayotgan o'zgarishlarga befarq qaramasligimiz, boshqalarga nisbatan uzoqni ko'ra bilishimiz kerak. Nafaqat bugungi, balki ertangi kunni aniq tasavvur etib, yosh avlod kelajagining tashvishi bilan yashashimiz zarur. Biz bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar unib-o'sib kelayotgan avlodimizga buyuk ajdodlarimiz asarlarini mutolaa qilib, ulardan zavq olishni o'rgatishimiz, ma'naviy merosimiz ijodkorlarining purma'no g'oyalarini hayotga tatbiq etishimiz lozim bo'ladi.

Bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini chuqur o'rganar ekanmiz, ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu- fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekaniga yana bir bor imon keltiramiz.

Barcha zamonlarda xalqini hidoyat yo'liga boshlash, ezgulikka va bunyodkorlik ishlariga da'vat etish, o'z hayot tarzi, ezgu amallari bilan odamlarga ibrat bo'lish ziyolilarning muqaddas burchi bo'lib kelgan. O'z kasbiy burchiga sodiq qolish, o'z xalqi va ona-Vatani oldidagi qarzdorlik hissini anglab yetish, jamiyat manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun deb bilish faqat ziyoli kishilargagina xos bo'lgan fazilatlardir.

Xulosa qidib aytganda, Biz nasl-nasabi dunyodagi barcha ma'rifatli insonlar tomonidan ulug'langan, qadriyatlari lol qoldirgan xalqmiz. Oilalarimizning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bizga ajdodlarimizdan o'tgan bilim va tajriba, madaniy qadriyatlar negizida barpo bo'lar ekan, bugungi globallashuv sharoitida biz milliy o'zligimizni saqlab qolishda buyuk allomalarimiz asarlaridagi bunyodkor g'oyalardan hayotimizni yaxshilash, oilalarimizni osoyishtaligini saqlashda to'laqonli foydalanishimiz lozim, deb o'ylaymiz. Oila – Vatan ichra kichik vatan! Vatanni, oilani sevmoq iymondandir. Zero oila tufayli nasl-nasabimiz uzviy davom etadi. O'z oilamizni avaylab-asrash, tinch-farovon hayotni barpo etish har birimizning qo'limizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 20 sentabr, № 189 (6883).

2. Shavkat Mirziyoevning "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan OliyMajlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi 2016 yil 14 dekabr)

WORDLY KNOWLEDGE